

Kuz yomg'iri



Kuz – yorqin ranglar va mayin yomg'irlar fasli. Daraxtlar bizga qizil, sariq va to'q sariq rangli yaproqlar hadya etadi, to'kilgan barglarning mayin shitirlashi quloqqa yoqimli eshitiladi. Atrof-olam o'zgaradi, tabiat go'yo har kuni yangi rasmlar chizayotgandek tuyuladi.



Bugun darsda **yaproqlardan kuzgi applikatsiya** yaratamiz.

Sizga kerak bo'ladi:



- havorang karton;
- flomasterlar;
- kuzgi yaproqlar;
- yelim;
- qaychi.

Ish rejasi:

1. Qo'lingizda qanday **yaproqlar** borligiga qarang. Ular ichidan **daraxtlar** va boshqa detallarga mosini tanlab oling.
2. Ufq chizig'ini belgilab oling. **Daraxtlar** hosil bo'lishi uchun **yaproqlarni yelimlab yopishtiring**.
3. Yaproqlardan **telpakcha**, **kurtka** va **etikchalar** qirqib oling. Ularni yopishtirgach, yomg'ir ostida sayr qilib yurgan **bola shaklini chizib tugallang**.
4. **Yomg'ir tomchilari**, **ko'lmaklar** va boshqa detallarni chizib, ishni yakunlang.



Kuz yomg'iri



1



2



3



4



5

